JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR UCHUN DIDAKTIK VOSITALAR QO'LLASHNING AHAMIYATI

**Istamova Shoxida Maxsudovna**
Filologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Qurbonnazarova Gulbegim To'ymurodovna**
Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi I kurs magistranti

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun didaktik vositalar qo'llashning ahamiyatli ekanligi, boshlang'ich sinflarning ona tili fan dasturidan kelib chiqib tarkibiy tuzilishi, shuningdek o'qitish jarayonida didaktik va ta'limiy o'yinlar ,pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish borasidagi ilmiy manbalar tahlili hamda darslarda ta'limning turli texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda turli metod va vositalardan foydalanish o'quv jarayonining naqadar qiziqarli va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.Darslarda ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar amaliyotga tatbiq qilinsa, olingan dalillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo'llash imkoniyatlari vujudga kelishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar**: "4 K" modeli, didaktik materiallar, ona tili darslari, o'qitish metodi, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayoni, ta'limiy o'yinlar,yaratuvchanlik ko'nikmasi,tadqiqot ko'nikmasi

# ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ В РОЖДЕСТВЕННЫХ КЛАССАХ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА

**Аннотация**: В данной статье рассматривается важность использования дидактических средств для учащихся с низким уровнем владения языком на занятиях по родному языку, структурная структура начальных классов на основе программы изучения родного языка, а также преподавания дидактических и обучающих игр, анализ научных источников по эффективное использование педагогических

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

технологий и применение различных образовательных технологий на уроках, использование различных методов и средств с учетом интересов учащихся, насколько интересным и качественным будет учебный процесс. Поясняется, что если знания, усвоенные через На уроках применяются творческие упражнения, можно из полученных данных сделать новые выводы и применить в деятельности новые способы деятельности.

**Ключевые слова**: модель «4К», дидактические материалы, уроки родного языка, методика обучения, образовательные технологии, образовательный процесс, развивающие игры, творческие способности, исследовательские навыки.

## THE SIGNIFICANCE OF USING DIDACTIC TOOLS FOR STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE CLASSES OF PRIMARY CLASS

**Abstract**: In this article, the importance of using didactic tools for students with low mastery in native language classes, the structural structure of elementary classes based on the native language science program, as well as teaching didactic and educational games, analysis of scientific sources on the effective use of pedagogical technologies and the use of various educational technologies in lessons, the use of various methods and tools, taking into account the interests of students, how interesting and qualitative the educational process will be It is explained that if the knowledge learned through creative exercises is applied in the lessons, it is possible to draw new conclusions from the obtained evidence and to apply new methods of activity in the activity.

**Key words**: "4 K" model, didactic materials, mother tongue lessons, teaching method, educational technologies, educational process, educational games, creativity skills, research skills

Barchamizga ma’lumki, hozirgi davrda ta’limni turli texnologiyalarsiz va yangiliklarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ayniqsa, yangi joriy etilgan “4 K” modeli bizning ta’lim tizimimizda tub burilish bo’ldi. Shu o’rinda “4 K” modeli haqida to’xtalib o’tish joiz.

Yangi innovatsion yondashuvni O‘zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o‘rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta’limi ilg‘or mamlakatlar o‘quvchilarda “4K” tamoyilini o‘z ichiga olgan XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda "4K"ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.[1] Jahon miqyosida barqaror ta’lim taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yunesko tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “Ta’lim–taqaqqiyotning asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadga yetkazuvchi muhim faoliyat, deb e’tirof qilingan.[2]

O’quvchilarga bunday yangi model asosida dars o’tish o’qituvchilardan ham katta mahoratni talab etadi. Bu yangi innovatsion model va darsliklar o’quvchi yoshlarimizning fikrlashini o’stirishga hamda dunyoqarashining kengayishiga katta turtki bo’lmoqda. Bugungi innovatsion davr va ta’limning maqsadi – o’quvchilar olgan bilimlarini hayotda qo’llay olishlarini ta’minlashdan iborat. Bu uchun esa darslarda ta’limning turli texnologiyalaridan foydalanish, o’quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda turli metod va vositalardan foydalanish o’quv jarayonining qiziqarli va sifatli bo’lishini ta’minlaydi.Bunday didaktik materiallarga esa bolalarning ijodiy fikrlash ko’nikmalarini oshirishga qaratilgan qiziqarli savollar, ijodkorona topshiriqlar, ta’limiy o’yinlar, tarqatma materiallari va shu kabilar kiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘quv jarayonida qo‘llanilishi natijasida elektron o‘quv qo‘llanmalar, virtual stendlar orkali murakkab texnologiyalarni qiska vaqtda mukammal o‘zlashtirib, masofadan turib o‘qitishga imkoniyat yaratiladi.Elektron darslik va qo‘llanmalarni masofali o‘qitishda qo‘llash uchun yukori faollikka ega bo‘lish lozim. Har bir

---

[1] **Kollaboratsiya:** Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

**Kommunikativlik:** O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

**Kreativ fikrlash:** O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi./ XXI asr o‘quvchisi uchun zarur ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi model – 4K haqida . https://kun.uz/uz/news/2023/08/17/xxi-asr-oquvchisi-uchun-zarur-konikmalarini-orgatuvchi-model-4k-haqida

[2] Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. – p. 4-5. http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

fanga mo'ljallangan elektron o'quv qo'llanma eng kamida uchta: ta'limiy, mashqli va nazorat qilish kabi asosiy qismlarga ega bo'lishi zarur.[3]

Darslarda didaktik materiallardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor berish ahamiyatlidir:

- o'quvchilarni turli muammolarni hal qilishga yo'naltirish;
- turli tadqiqotlar olib borishga yo'naltirish;
- muammoli vaziyat yarata olish va ulardan chiqa olish ko'nikmalarini shakllantifish;
- darslarda turli tarzdagi amaliy tajribalar o'tkazish;
- yangi bilimlarni izlash va ularni tahlil qilishga yo'naltirish.

Darslarida turli didaktik materiallardan foydalanishda turli ijodiy topshiriqlar ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish va turli didaktik o'yinlarni ham misol qilish mumkin.Darslarda ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar amaliyotga tatbiq qilinsa, olingan dalillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo'llash imkoniyatlari vujudga keladi.

Didaktik vositalardan unumli va samarali foydalanishda kichik guruhlarda yoki individual shakllarda tashkil etiladigan vaziyatlar muhim ahamiyatga ega. Guruhlarda ishlashda o'quvchilarning muloqotga kirishish, o'z fikrini aytish,boshqalar fikrini bo'lmasdan eshitish, faol ishtirok etish,bir-birining nuqtai nazarini hurmat qilish kabi ijodiy xususiyatlar shakllanadi.[4]

Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llanadigan usullar, mashqlar variantlari ko'p. Fonetik, grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta'limiy o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Ta'limiy o'yinlarni boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda bir tamondan, o'quvchilarning zerikishi, charchog'iga barham berilsa, ikkinchidan tamondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi. Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib,

---

[3] https://fayllar.org/5-mavzu-zamonaviy-oquv-didaktik-vositalardan-talim-jarayonida.html

[4] Ona till darslarida didaktik vositalardan foydalanish https://kopilkaurokov.ru/nachalniyeKlassi/prochee/ona_till_darslarida_didaktik_vositalardan_foydalanish

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqilligi va o‘quv fani faoliyatini ta’qiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo‘naltirish o‘quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Shundan keyingina darslarda foydalaniladigan didaktik o‘yinli texnologiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasbga yo‘llash, didaktik o‘yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo‘ljalni to‘g‘ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydi.[5]

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, ta’limdagi har bir yangilik ta’limning sifatini belgilaydi. Fan o’qituvchilari ,ayniqsa, boshlang’ich sinf o’qituvchilari zimmasidagi mas’uliyat juda katta. Bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar bilan yaqindan o’rnatilgan muloqot hamda ular bilan o’tkaziladigan amaliy va ta’limiy mashg’ulotlar ularning o’zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ularda muammoli vaziyatlardan chiqa olish ko’nikmasi shakllanadi.O’qituvchilar tomonidan ishlangan ta’limiy didaktik vositalar ulardagi yangi bilimlarni o’zlashtirishga bo’lgan ishtiyoqini orttirishga xizmat qiladi.Bunda o’qituvchilarning asosiy vazifasi darslarni qiziqarli tashkil etishi, bo’sh o’zlashtirayotgan o’quvchilarni o’z vaqtida aniqlash hamda yechim bera oladigan rejalar tuzib chiqishi lozim. Darslar davomida interfaol usullardan foydalanish samaradorlik ko’rsatkichini oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.

2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, *5*.

3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, *2*.

4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, *4*.

5. Olimov, T. (2020). BO’LAJAK OLIY MA’LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO’NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, *1*(1), 20-27.

6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

7. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.

8. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).

9. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.

10. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.

11. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. Miasto Przyszłości, 35, 388-390.

12. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 292-292.

13. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 102-106).

14. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. Проблемы науки, 84.

15. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

16. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).

17. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. Universum: технические науки, (2-1 (95)), 57-59.

18. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. Научный журнал, (6 (40)), 101-102.

19. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 383-388.

20. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, *1*(3), 102-107.

21. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(10), 138-143.

22. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

23. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL*, *7*.

24. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, *10*.

25. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

26. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *6*(1), 54-68.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-2, Issue-2

27. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, *7*(17), 461-466.

28. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.

29. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, *1*(6), 47-51.

30. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.

31. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, *65*(1), 2719-2722.

32. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.

33. Ro’ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.

34. Ro‘ziyeva, M. Y. (2021). O’qish darslarida fasllar bilan bog’liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro ‘ziyeva MY, Boshlang ‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloyeva, BuxDU, boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).

35. Ro’ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro’ziyeva, BuxDu Boshlang’ich ta’lim nazariyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).